



UDK: 378.147:61(043.3)

Shoira DALIMOVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti assistenti

Andijon davlat tibbiyot instituti professori A.Ismanova taqrizi asosida

TIBBIY TA'LIMDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALAR PROFILAKTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Maqolada tibbiy ta'lim jarayonida kreativ yondashuvning mohiyati va uning talabalarda profilaktik kompetensiyani shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Kreativ pedagogik metodlarning nazariy va amaliy asoslari, ularning ta'lim jarayonidagi afzalliklari va samaradorligi ochib beriladi. Tadqiqot davomida adabiyotlar tahlili, qiyosiy yondashuv, pedagogik kuzatuv va tajriba-sinov metodlari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining profilaktik faoliyatga tayyorgarligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlash, ijodkorlik va innovatsion qaror qabul qilishga undaydi.

Kalit so'zlar: Tibbiy ta'lim, kreativ yondashuv, profilaktik kompetensiya, metodika, innovatsion pedagogika.

СУЩНОСТЬ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и практические основы применения креативного подхода в медицинском образовании, а также его роль в формировании профилактической компетентности студентов. Используются методы анализа литературы, сравнительного подхода, педагогического наблюдения и экспериментального исследования. Результаты показали, что системное внедрение креативных методик повышает готовность студентов к профилактической деятельности, способствует развитию самостоятельного мышления и профессиональной ответственности.

Ключевые слова: Медицинское образование, креативный подход, профилактическая компетентность, инновационная методика.

THE ESSENCE AND IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' PREVENTIVE COMPETENCE BASED ON A CREATIVE APPROACH IN MEDICAL EDUCATION.

Annotation

This article analyzes the theoretical and practical foundations of applying a creative approach in medical education and its role in developing students' preventive competence. Methods such as literature review, comparative analysis, pedagogical observation, and experimental study were employed. The findings indicate that systematic implementation of creative methods enhances students' readiness for preventive activities, stimulates independent thinking, and strengthens professional responsibility.

Key words: Medical education, creative approach, preventive competence, methodology, innovative pedagogy.

Kirish. Hozirgi davrda ta'lim tizimi tubdan yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Xususan, tibbiy ta'limda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metod va texnologiyalarni joriy etish orqali yuqori malakali, kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv, avvalo, bilim, ko'nikma va malakalarning amaliy faoliyatda qo'llanishini ta'minlash, shuningdek, talabalarining kasbiy vazifalarni hal etishga tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv an'anaviy bilim berish tizimidan farqli ravishda, shifokorlarning mustaqil qaror qabul qilish, klinik vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa olish, muloqot, axloqiy mas'uliyat va jamoada ishlash qobiliyatini shakllantirishga urg'u beradi [1].

Tibbiyot sohasida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi global tendensiyalardan biri bo'lib, ko'plab rivojlangan davlatlarda sog'liqni saqlash tizimi ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashning asosiy pedagogik konsepsiyasi sifatida qaralmoqda. Tibbiy ta'lim jarayonida bu yondashuvning asosiy vazifasi – nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, talabalarda

mustaqil tahlil qilish, klinik qaror qabul qilish va diagnostik-terapevtik jarayonlarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shu boisdan kompetensiyaviy yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra shaxsning bilim olish jarayonida emas, balki keyingi kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladigan natijalarga yo'naltirilgan [3].

Mazkur yondashuvning rivojlanish bosqichlari ham o'ziga xos jarayonni tashkil etadi. Dastlab u umumiy ta'lim va pedagogikada nazariy tushuncha sifatida qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik professional ta'limda, ayniqsa tibbiy ta'limda keng qo'llanila boshlandi. Bugungi kunda esa kompetensiyaviy yondashuv faqat bilim va malaka emas, balki kommunikativ, axloqiy, psixologik, axborot va madaniy kompetensiyalarni ham o'z ichiga qamrab olmoqda. Shu tariqa, tibbiy ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik paradigmalardan biri sifatida uning ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Xorijiy adabiyotlarda Harden R.M. [3], Frank J.R. [5], Epstein R.M. [6] kabi olimlar kreativ yondashuv va kompetensiyaviy ta'limning nazariy asoslarini keng yoritib, uning tibbiy ta'limdagi amaliy ahamiyatini asoslab bergan. O'zbekiston olimlaridan D.D.

Sharipova, N.A. Muslimaeva va Q.T. Olimov [7]lar tomonidan kreativ va kompetensiyaviy yondashuvning milliy tibbiy ta'lim jarayonidagi ahamiyati o'rganilgan.


Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va tajriba-sinov metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

Nazariy bosqich – kreativ yondashuvning konseptual asoslari, xorijiy va milliy ilmiy ishlarda uning profilaktik kompetensiya rivojlanishiga ta'siri o'rganildi.

1-jadval. Tajriba-sinov o'tkazilgan guruhlar bo'yicha talabalarni umumiy baholash natijalari.

Ko'rsatkichi	Tajriba guruhlar				Nazorat guruhlar			
	Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%	Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%
A'lo	15	20	20	26,7	12	16	14	18,7
Yahshi	30	40	40	53,3	38	50,7	40	53,3
Qoniqarli	20	26,7	15	20	15	20	12	16
Qoniqarsiz	10	23,3	0	0	10	13,3	9	12
Jami:	75	100	75	100	75	100	75	100



Natijalardan ko'rinib turibdiki, kreativ yondashuv asosida ta'lim olgan talabalar nafaqat bilim va amaliy ko'nikmalar, balki ijodiy yondashuv va profilaktik faoliyatga tayyorlik darajasi bo'yicha ham yuqori natijalarga erishgan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tibbiy ta'lim jarayonida kreativ yondashuvni joriy etish talabalarda profilaktik kompetensiyani samarali rivojlantiradi. An'anaviy yondashuvga qaraganda, kreativ metodlar orqali o'qitish:

talabalarni mustaqil fikrlash va ijodiy qaror qabul qilishga yo'naltiradi;

profilaktik faoliyatda yangicha yondashuvlarni qo'llashga rag'batlantiradi;

Qiyosiy bosqich – an'anaviy va kreativ metodlar asosida o'qitilayotgan talabalar ta'lim natijalari solishtirildi.

Tajriba-sinov bosqichi – talabalarda kreativ yondashuv asosida profilaktik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil qilindi va natijalar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tajriba davomida nazorat guruhida an'anaviy o'qitish metodlari, tajriba guruhida esa kreativ yondashuv asosida ta'lim tashkil etildi. Baholashda kognitiv (bilim), operatsion-amaliy (ko'nikma), motivatsion-ijodiy (qiziqish, kreativ yondashuv) mezonlari qo'llanildi.

talabalarda tibbiy etika, kommunikativ ko'nikma va kasbiy mas'uliyatni shakllantiradi.

Takliflar:

tibbiy ta'lim dasturlarida kreativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan interfaol metodlarni keng joriy etish;

profilaktik kompetensiyani rivojlantirish uchun simulyatsiya, muammoli vaziyatlar va loyiha metodlarini tatbiq etish;

talabalarni sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan kreativ topshiriqlar orqali mustaqil ishlashga jalb etish;

o'qituvchilar malakasini kreativ pedagogika va innovatsion metodlar bo'yicha muntazam oshirib borish.

ADABIYOTLAR

1. Spencer J., Jordan R. Learner centred approaches in medical education. BMJ. 1999;318:1280–1283.
2. Harden R.M. Outcome-based education: the future is today. Med Teach. 2007;29(7):625–629.
3. Frank J.R. et al. Competency-based medical education: theory to practice. Med Teach. 2010;32(8):638–645.
4. Epstein R.M., Hundert E.M. Defining and assessing professional competence. JAMA. 2002;287(2):226–235.
5. Ten Cate O. Competency-based education, entrustable professional activities, and the power of language. J Grad Med Educ. 2013;5(1):6–7.
6. Carraccio C. et al. Shifting paradigms: from Flexner to competencies. Acad Med. 2002;77:361–367.
7. Sharipova D.D., Muslimaeva N.A., Olimov Q.T. Tibbiy ta'limda innovatsion metodlar va kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent, 2023.
8. Ismanova A.A., Xolmamatova U.S. Application of information technologies in infectious diseases: a modern approach. Modern Education and Development. 2025;77-84.
9. Mukhammadjonovich R.M. et al. Use of new innovative methods in teaching the science of information technologies. J. Survey in Fisheries Sciences. 2023;10(2S):1458–1463.